



Volume 1, Issue 1(18), 2024

# Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

**Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Safarovich**

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Deputys Chief Editor:**

**Sodikov Khamid Makhmudovich**

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

**Orishev Jamshid Bahodirovich**

Senior teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

**Members of the editorial board:**

**Ubaydullaev Sadulla**, dotsent

**Ismailov Tuychi Djabbarovich**, dotsent

**Kholmatov Pardaboy Karabaevich**, dotsent

**Umarov Rakhim Tojievich**, dotsent

**Murtazaev Melibek Zakirovich**, dotsent

**Abduraimov Sherali Saidkarimovich**, dotsent

**Tugalov Farkhod Karshibayevich**, dotsent

**Taylanov Nizom**, senior teacher

**Tagaev Khojamberdi**, senior teacher

**Alibaev Turgun Chindalievich**, PhD

**Yusupov Mukhammad Makhmudovich**, dotsent

**Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich**, PhD

**Irmatov Fozil Muminovich**, PhD

**Editorial Representative:**

**Jamshid Orishev**

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

**ONLINE ELECTRONIK  
JOURNAL**

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali  
Журнал “Физико-технологического образования”  
“Journal of Physics and Technology Education”

**Indexed By:**



**Published By:**

<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2024-03-30

**MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

| <i>№</i> | <i>MUALLIFLAR /<br/>AUTHORS/ АВТОРЫ</i>   | <i>MAQOLA NOMI/<br/>ARTICLE TITLE/<br/>НАЗВАНИЕ СТАТЬИ</i>  | <i>SAHIFALAR/<br/>PAGES /<br/>СТРАНИЦЫ</i> |
|----------|---|---|--|
| 1        | <i>Qurbonov A.R.<br/>Ismoilov S.</i>  | <i>Kuchsiz o‘zaro ta’sirlashuvning Feynman diagrammasi orqali tavsiflanishi</i>   | <i>5-10</i>                                |
| 2        | <i>Utambetov B. T.,<br/>Qalmuratova X. A.,<br/>Ibraymova S. B.</i>                  | <i>O‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyati</i>   | <i>11-17</i>                               |
| 3        | <i>Ibroximov M. A.,<br/>Axmadjonova S. A.</i>                                       | <i>Raqamli ta’lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o‘rni</i>                        | <i>18-24</i>                               |
| 4        | <i>Xolmatov Pardaboy<br/>Qorabekovich</i>   | <i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirish</i>  | <i>25-29</i>                               |
| 5        | <i>Jabborov A.<br/>Xolmatov P.Q.</i>  | <i>Bo‘lajak zamonaviy texnologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ulardan foydalanish yo‘llari</i>                        | <i>30-38</i>                               |
| 6        | <i>Oltmishev Toxirjon<br/>Turgunovich</i>   | <i>Qalamtasvir va uning maqsad-vazifalari</i>   | <i>39-42</i>                               |
| 7        | <i>Oltmishev Toxirjon<br/>Turgunovich</i>   | <i>Uzuzq chiziqlardan to ‘g’ri foydalanish qoidasi</i>  | <i>43-48</i>                               |
| 8        | <i>Umarov R.T.,<br/>Isoqov Sh.T.</i>  | <i>Bobur o‘z davrining bunyodkori</i>   | <i>49-53</i>                               |
| 9        | <i>Umarov R.T.,<br/>Nazarov O.</i>  | <i>Bobur va boburiylar davrida musavvirlik san’ati</i>  | <i>54-58</i>                               |
| 10       | <i>Sharipov A.A.,<br/>Jaloldinova S.X.<br/>Qalmuratova X.A.,<br/>Islomova N.Sh.</i> | <i>Texnologiya fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish</i>   | <i>59-62</i>                               |
| 11       | <i>Po‘latov J.H.,<br/>Alqorov Q.X.</i>  | <i>Texnologik ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda fizikaga uzviy bog‘langan laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish asoslari</i> | <i>63-66</i>                               |
| 12       | <i>Eshmatova Sh.T.,<br/>Alqorov Q.X.</i>  | <i>Umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</i>                             | <i>67-70</i>                               |
| 13       | <i>Orishev J.B.,<br/>Jumanova S.H.</i>  | <i>Bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy faoliyatini tashkil etishga oid ba’zi mulohazalar</i>   | <i>71-78</i>                               |
| 14       | <i>Ortiqova O.Sh.,<br/>Aqbo‘tayeva B.M.</i>   | <i>Kostyum tashkil etilishida rang xususiyatlari</i>  | <i>79-82</i>                               |

|           |  |  |                |
|-----------|--|--|----------------|
| <b>15</b> | <b><i>Xolmatova M.Q,<br/>Alqorov Q.X.</i></b>                            | <b><i>Ta'lim taraqqiyotida interfaol uslublarning<br/>ahamiyati</i></b>  | <b>83-88</b>   |
| <b>16</b> | <b><i>Xotamov J.A.,<br/>Ummatova S.Z.</i></b>                            | <b><i>Metagalaktikaning izotroplik va bir jinslilik<br/>xususiyatlari</i></b>  | <b>89-91</b>   |
| <b>17</b> | <b><i>Xotamov J.A.,<br/>Ummatova S.Z.</i></b>                            | <b><i>Kengayuvchan koinotning kosmologik<br/>modellari</i></b>   | <b>92-94</b>   |
| <b>18</b> | <b><i>Tursunboyev O.V.,<br/>Quvondiqov M.K.,<br/>Boboqulova Z.V.</i></b> | <b><i>Yadro fizikasini o‘qitishda “yalpi fikriy hujum”<br/>strategiyasi asosida muammoli masalalarni<br/>tahlil qilish</i></b> | <b>95-99</b>   |
| <b>19</b> | <b><i>Ortiqova O.Sh.,<br/>Xudoyqulova Z.M.</i></b>                       | <b><i>Kostyum detallarini chizish va modellarning<br/>dekorativ bezatilishi</i></b>  | <b>100-105</b> |
| <b>20</b> | <b><i>Abdirayimova Dilnoza<br/>Azamat qizi</i></b>                       | <b><i>O‘quvchilarni kasb - hunarga yo‘naltirishga<br/>oid pedagogik jarayonlar</i></b>   | <b>106-111</b> |

## KOSTYUM TASHKIL ETILISHIDA RANG XUSUSIYATLARI

*Ortiqova Ozoda Sharofovna<sup>1</sup>, Aqbo’tayeva Baxtiniso Mamarajab qizi<sup>2</sup>*

*<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta’lim va tasviriy san’at fanlari kafedrası o’qituvchisi, <sup>2</sup>Dizayn yo’nalishi talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada kostyum tashkil etilishda rang xususiyatlari to’g’risida keng ma’lumot beriladi.*

***Kalit so’zlar:** San’at tarixi,estetik ob’ektlar,visual,stilistik,kontekst, rasm, chizmachilik, axromatik, xromatik, kompozitsiya, dekorativ, texnik, spektr*

***Аннотация:** В данной статье представлена обширная информация об особенностях цвета в составе костюма.*

***Ключевые слова:** Искусствоведение, эстетические объекты, визуальное, стилистическое, контекст, живопись, рисунок, ахроматическое, хроматическое, композиция, декоративное, техническое, спектр.*

***Abstract:** This article provides extensive information about the characteristics of color in the composition of a suit.*

***Key words:** Art history, aesthetic objects, visual, stylistic, context, painting, drawing, achromatic, chromatic, composition, decorative, technical, spectrum*

Ayollar kostyumida rangga alohida rol ajratiladi, chunki uning shakli XII yoki XIII asrlarda ayollar kostyumida ko’rish mumkin bo’lgan murakkab konfiguratsiyalarga ega emas. Bundan tashqari kostyumni industrial uslublarda tayyorlash shaklan ajoyib, biroq turli gazlamalar yoki imkoni bor to’ldirishlar bilan kostyumlar seriyasini bajarishga imkon berdi. XX asr rang nafaqat kompozitsiya vositalarining biri roliga ega bo’ladi, qator hollarda asosiy ahamiyat kasb etadi. Bundan fizika, kimyo, psixologiya olimlari rassomchilik faoliyati turli sohalarida, ayniqsa muhit dizaynida rang masalalarini o’rganishga ko’p asarlarini bag’ishlashlarini tushunish mumkin.

Biroq aytish lozimki, kostyum va to‘qimachilik sohasida amaliyotda foydalanish uchun jiddiy asos bo‘la oladigan ishlanmalar juda oz. Teofil Gote rassom ishlamoqchi bo‘lgan san‘at alifbosini bilishi kerak deb haq gapni aytgan.

Rang predmet muhim axborot xususiyatlaridan biri. Boshqa belgilardan ko‘ra ko‘proq rang kishiga emosional ta’sir etadi: kostyumda bu ayniqsa ahamiyatga ega, chunki modellar turli-tumanligiga turli gazlamalar va ularning rang uyg‘unliklaridan foydalanish hisobiga erishiladi. Rang orqali biz material haqida ma’lumot olamiz: rang «og‘irligi» yoki «yengilligi» model yoki predmet obrazi to‘g‘risida birinchi tasavvurlar beradi. Ob’ektning eng faol belgilaridan biri bo‘lgan rang predmetning umumiy muhitdan ajralib turishiga yordam beradi, uni boshqa predmetlardan ajratib turadi. Rang tufayli biz predmetni dastlab his etamiz va qabul qilamiz, uning mazmuni bilan tanishamiz. Turli rangdagi atrofimizdagi predmetlarni kuzatib, quyidagiga e’tiborni qaratish mumkin: oq predmetlar soyada yaxshi yoritilgan oq predmetlarga nisbatan kul rang ko‘rinadi. Qizil, yashil, ko‘k, binafsha rang predmetlar soyada ham faqatgina to‘qroq bo‘lib qoladi, kul ranglar esa oqlardan sal balandroq bo‘lgani bilan farq qiladi. Qizil, yashil, ko‘k, binafsha ranglar esa oqlardan ham, bir-biridan ham biri qizil, boshqasi yashil, uchinchilari ko‘k va hokazoligi bilan farq qiladi.

Fizikadan ma’lumki, spektrda (kamalakda) oq va kul ranglar yo‘q. Oq-kul ranglar alohida guruhni tashkil etadi. Ularga yana spektrda bo‘lmagan, kul rangdan faqatgina yana ham to‘qligi bilan farq qiluvchi qora rangni ham qo‘shish kerak.

Oq ranglar ko‘p. Oddiy yozuv qog‘ozi, bo‘r, qor, gips, belila (oq bo‘yoq) oq rangda. Kul ranglar ham ko‘p. Ular o‘rtasida qoraga o‘xshab ketuvchilari ham ko‘p uchraydi. Qora ranglar ham ko‘p: qora baxmal qora movutdan to‘qroq, qora movut qora surat qog‘ozidan to‘qroq va hokazo.

Axromatik deb faqat sof oq, sof kul va sof qora ranglar ataladi. Salgina seziluvchi qizilcha, yashil, ko‘kimtir yoki boshqa biron tus qo‘shilgan rang xromatik bo‘ladi.

Axromatik ranglar bir-biridan faqat yorug‘ligi bilan farq qiladi, ya’ni biri ochiqroq, boshqasi to‘qroqligi bilan. Xromatik ranglar axromatiklar kabi bir-biridan ochiqligi bilan farq qiladi. Masalan, ko‘k ultramarin qizil kinovaridan to‘qroq, qizil kinovar kraplakdan ochiqroq. Bundan tashqari, xromatik ranglar bir-biridan ulardan biri qizil, boshqasi sariq yoki ko‘k va hokazoligi bilan farq qiladi. Rangni qizil, yashil yoki ko‘k va hokazo deb atash bilan ko‘zda tutiluvchi rang belgisi rangshunoslikda rang tusi atamasi bilan ifodalanadi. Demak, xromatik ranglar bir-biridan nafaqat ochiqligi, balki rang tusi bilan ham farq qiladi. Rang tuslarining tabiiy shkalasi spektrdir. Spektrga qarashda, uning bir tomonida binafsha ranglarni, ya’ni ko‘kdan qizilga o‘tuvchilarni, boshqa tomonidan binafsha tusga yaqin qizillarni ko‘ramiz. Bu spektr ranglari o‘rtasida to‘q qizil ranglar joylashadi. To‘q qizil ranglarni spektral ranglarga qo‘shib, spektrni halqaga – rangli aylanaga o‘rash mumkin, ya’ni bu ranglarni aylana bo‘ylab joylashtirish mumkin. Rangli aylanada to‘rt rang: qizil, sariq, yashil, ko‘k ranglar ajralib turadi. Qolgan hamma ranglarda bu ranglar birining borligini ko‘rish mumkin. Bu to‘rt rang asosiy ranglar deb ataladi. Rangli aylanani ranglar tusi bo‘yicha guruhlanuvchi ikkiga ajratsak, ya’ni bir qismida qizil, to‘q sariq, sariq, sarg‘ish-yashil ranglar, boshqasida – moviy-yashil, ko‘k, ko‘kimtir-binafsha ranglar joylashgan bo‘ladi, iliq va sovuq deb ataluvchi rangli aylananing ikki qismi hosil bo‘ladi. Issiq jismlar rangini eslatuvchi ranglar – iliq deb, uzoqni, suv, muz, metallni eslatuvchilari esa sovuq deb ataladi. Biroq barcha xromatik ranglar kul rang, qora yoki oq ranglar qo‘shilmasiga qarab o‘zgaradi. Har bir rangga qora yoki oq rang qo‘shilsa, bir rang tusiga ega bo‘lgan qator rang tuslarini hosil qilish mumkin bo‘lib, ular uning asosiy rang tavsifini tavsiflaydi. Xromatik rangning axromatikdan farqlanish darajasi rang to‘yinganligi deb ataladi. «To‘yinganlik» atamasini rassom ko‘pincha «intensivlik» atamasi bilan almashtiradi. Bu keyingi atama rang to‘g‘risidagi fanda ham qo‘llanadi, faqat boshqacha ma’noda. Ranglar intensivligi uning to‘yinganligiga bog‘liq, ancha to‘yinganroq ranglar intensiv bo‘ladi. Iliq tuslar predmet yuzasini kattalashtirib

ko’rsatadi, sovuqlar – kichraytiradi. Ranglarning butun iliq qismi ranglar aylanasining ustki qismida, sovuq qismi esa – pastkisida joylashgan .Rangning insonga ta'siri qator sabablarning murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Ranglar kishilarga bir xil ta'sir etmasligini esda saqlash lozim, bu shaxsning ijtimoiy tegishliligi, millati, rang qabul qilinayotgan sharoitlar bilan bog'liq. Bir kishining o'zi turli predmetlar: kitoblar, ko'ylaklar, binolar va hokazo rangiga turlicha munosabatda bo'ladi. Ranglar turli nuqtai nazardan baholanishi mumkin: qizil rang devor tekisligida ko'ylak uchun yaxshi bo'lmasligi mumkin.

Aytildanlardan xulosa qilish mumkinki, rangning emosional ta'siri ikki asosiy sababga ega: bevosita fiziologik (qo'zg'ovchi yoki tinchlantiruvchi) va u bilan bog'liq hislar.Xalqning estetik his etish kuchi va qudrati, ongining chuqurligi sababi shundaki, xalq va tabiat bir butunlikni, haqiqiy va ongli hayotni tashkil etadi, shuning uchun xalq san'ati doimo haqqoniy va go'zal.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Z. Devletshayeva. “Tikuv buyumlarni tayyorlash texnologiyasi”, Toshkent: - Sano-standart, 2017 y.
2. Jabborova M.Sh. Tikuvchilik texnologiyasi- Toshkent: Uzbekiston, 1994 y.
3. Q.M.Abdullayeva Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari. O'quv qo'llanma, T.: “Adabiyot”-2006
- 4.Ortiqova, O. (2023). Research on the process of independent work activities of students in technology education. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(11), 85-87.
- 5.Nazirova, N. va Ortiqova, O. (2021). Quroqchilik san'atining rivojlanishi. *Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie* ,



6.Ortiqova, O. (2023). Texnologiya fanini integrallab o‘qitishda yoshlarni ekologik madaniyatini shakllatirishning yo‘llari. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 1), 27-29.

7.Ortiqova, O. (2023). Talablarning texnologiya ta’lim fanidan mustaqil ish faoliyati jarayoni bo‘yicha tadqiqot. Evraziyskiy jurnal sotsialnyx nauk, filosofiii i kulturey , 3 (11), 85-87.

8.Ortiqova, O. va Nazirova, N. (2021). Quruq san'atning rivojlanish bosqichlari. Fiziko-texnologicheskogo obrazovanie , 7 (7).

9.Тагаев, Х., Алкаров, К. Х., Артикова, О. Ш., & Мамаджанова, К. А. (2016). Патент-как ядро и стратегический шаг вперед к новым высотам технической и инженерной мысли. In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1773-1776).

10.Ortiqova, O. (2023). Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi. *Физико-технологического образование*, (3).

11.Ortiqova, O. (2021). Ayollar kiyimlarini yaratilish tarixidan. *Физико-технологического образование*, 5(5).